

AJDODLAR MEROSIDA TAFAKKUR VA ISTE'DOD MEZONI

K. A. Xo`shboqov

Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrası o`qituvchisi e-mail:

kamolxoshboqov22121995@gmail.com tel: 97 – 842 -02 -02

Annotatsiya Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz o`z oldiga ezgu va ulug` maqsadlar qo`yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o`z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo`lida ulkan natijalarni qo`lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Ma`lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma`naviy qarashlari o`z-o`zidan, bo`sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo`lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Ushbu maqolada shu omillar haqida so`z yuritamiz.

Kalit so`zlar: ajdod, avlod, meros, madaniyat, ma`naviyat, iste`dod, tarix

Tafakkur - [inson](#) aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning [ongda](#) aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U [sezgi](#), [idrok](#), [tasavvurlarga](#) qaraganda voqelikni to`la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o`rtasidagi bog`lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo`l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to`laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo`lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog`lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz.

O`rta asr allomalaridan al-Farobiyning fikricha, zakovat – biror narsani juda tez, deyarli vaqt sarflamay yoki juda qisqa muddat ichida osonlik bilan fahmlay olish qobiliyatidir”. Darhaqiqat, buyuk zotlarda tafakkur, iste`dod zarralari bolalik davridayoq ma`lum ta`sirlar ostida shakllanib borgan. Olimlarning aniqlashicha, bola aqlining shakllanish davri asosan 7 yoshgacha davom etadi. Aynan shu davrda u qanday inson bo`lib yetishishiga zamin bo`ladigan butun axborotning 70 foizini o`zlashtiradi. Hamma gap ana shu axborot tizimini mustahkamlash, uni bolaning qon-qoniga singdirib yuborish choralarini ko`rishdir. O`tkir aql va go`zal axloq - ma`naviy yetuk inson bo`lib yetishishning asosiy shartlaridan biri. Imom al-Buxoriyda nodir iste`dod yoshligidanoq namoyon bo`lgan. U ilk yoshlik davridayoq Qur`oni karimni yod olgan. O`n-o`n bir yoshdan hadis rivoyat qiluvchilarning tarjimai hollari bilan tanisha boshlagan va o`n sakkiz yoshdan kitob yoza boshlagan.

Shuningdek, Imom al-Buxoriy arab tili sarf va nahvida balogʻatga erishib, favqulotda oʻtkir xotira, aql-zakovat, oʻtkir zehn, sabr- toqatlilik, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, diniy ilmlarga cheksiz qiziqish namoyon etgan. Qastaloniyning xabariga koʻra, Imom al-Buxoriy, ayniqsa, hadislarni oʻrganish, ularni birinchi oʻqish yoki eshitishdayoq yod olish, muhaddislardan hadis tinglashda tirishqoq va oʻrnak boʻlib, 10 yoshga yetganda 10 ming hadisni yoddan ayta olgan. Bu sohada ustoz Shayx Abu Bakr Ablulloh ibn az-Zubayr al-Homidiy ibn Rohavayh (Imom Ishaq ibn Ibrohim) tahsin va olqishlariga sazovor boʻlibgina qolmay, u kishidan “Xotirangizdagi hifz qilgan hadislarning eng sahihlarini ajratib olib, alohida bir kitobga jam qilmoq” koʻrsatmasini olgan. Bolalikda rivojlantirilgan isteʼdod Imom al-Buxoriyni nafaqat yirik olim, balki goʻzal xulq-atvorli va sahovatli olijanob inson sifatida kamol topishiga sabab boʻlgan. Ibn Sino ham tengsiz maʼnaviy iqtidor sohibi boʻlgan. Tabobat bilan oʻta band boʻlishiga qaramasdan, 450 dan ortiq asar yozgan. Bolaligidanoq ilmga intilgan Ibn Sino betinim izlanishi va mashaqqatli mehnati tufayli buyuk hakim boʻlib yetishdi. Betakror isteʼdodi, oʻtkir zehni, tafakkur kuchi bilan Ibn Sino odam organizmining tuzilishi va qanday ishlashini batafsil oʻrganib chiqib, olamshumul muvaffaqiyat qozondi va tibbiyot tarixining toʻridan joy oldi. Uning koʻpdan - koʻp qimmatli fikr - mulohazalari hozir ham oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda. Inson oʻz kuchini, tafakkurini ishga solib, tabiat qonunlarini, uning sirli tilsimotini anglashga harakat qilib, oʻzidagi ruhiy va aqliy quvvatni boshqara olishga intiladi. Zero, insonning ruhiy va aqliy quvvati tarqoq holda mavjud. Fikrni jamlab, parishon holdagi quvvat va tafakkurni bir yerga toʻplab, barcha eʼtiborini shunga qaratib, uni boshqarishi mumkin. “Tafakkur, - deyiladi “Temur tuzuklari” da, - fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvat hofizasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulotni oson qilish yoʻlini topa oladi”. Bu taʼrifda maʼnaviyatning uch tarkibiy qismidan ikkitasi, yaʼni aql va iroda faoliyati bilan bogʻliq tafakkur - mulohaza, es-xotira, xulosa - hukm va azmu qaror singari inson ruhiyatida kehadigan jarayonlar nazarda tutilgan. Ular botiniy boʻlganidan faqat nutq, til, soʻz va yozuv orqali boshqalarga ham ayonlashadi va amaliy xatti-harakat vositasida voqelikka aylanadi. Sohibqiron Tanbehlarida uchraydigan quyidagi hikmatda ham aynan shu fikr taʼkidlangan: “Biron ishni bajarishga qasd qilgan boʻlsang, butun zehning, vujuding bilan tirishib, bitirmaguncha undan qoʻl tortma”. Donolar ilm va yuksak maʼnaviy-axloqiy sifatlar sohibini aqlli odam, deb aytganlar. Aql (tafakkur) saxovat eshiklari va saodat xazinasining kaliti, dunyoning noz - neʼmatlariga ega boʻlish dam aqlga bogʻliq, deb hisoblaydilar. Aql insonni boshqaruvchi kuch, ruh esa uni harakatga keltiruvchi ichki qobiliyatdir. Aql insonni yaxshi ishlarga daʼvat etadi, eʼtiqodini mustahkamlaydi. Aql ilmga erishish vositasi hamdir. Ilm insonning zehni

o'tkirlashtiradi, husni xulq esa uning dilini ravshanlashtiradi. Donishmandlar bularning uzviy birligini donishmandlik ifodasi, deb qaraganlar. Shoh Xusravning vaziri Buzurgmehrardan inson uchun eng zarur narsa, nima deb so'raganlarida, u: "Tug'ma zehn», deb javob beribdi. Tug'ma zehn bo'lmasachi? deb so'rasalar: "Odob va ilm o'rgansin", - debdi. O'rganolmasa-chi? deb so'rasalar: "Mol - davlat, zaru zavar orttirsin, bu ham ko'p ayblarni berkitadi", debdi. Eplolmasachi? deb so'rasalar: "Unda sertavoze' va seriltifot bo'lsin, bu ham odamning ziynati" deb aytgan. Bu ham qo'lidan kelmasachi? deb so'rasalar: "Unda unaqa tiriklikdan o'lgan afzalroq, ham odamlar qutiladi, ham o'zi qutiladi" degan ekan. Har bir ota-ona o'z farzandini bolaligidan qobiliyatini aniqlab, uni qo'llab-quvvatlasa, munosib murabbiy yordamida tarbiyalasa, jamiyatimizda iste'dodli insonlar safi kengayib boraveradi. Inson kamoloti bolalikda qanday tarbiya olganiga bog'liqligiga ko'plab dalillar keltirish mumkin. Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur kabi alloma va shoirlar dastlabki bilim va malakalarni ota-onalaridan, salohiyatli ustozlardan o'rganganlar. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyiligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Marhum akademik Qori Niyoziy bolalik chog'larini shunday eslaydi: "Otam ishdan bo'sh vaqtlarida turli hikoya va dostonlar o'qib berardi. Ayam esa tunganmas ertaklar manbai bo'lib, juda sodda qilib, bolalar tilida, badiiy uslubda aytib berardi. Men ularni sabrsizlik bilan kutardim, chunki ertaklar meni shu darajada ta'sirlantirar ediki, hatto ayrim ertak va doston voqealari tushlarimga kirardi". Biz o'zimiz ham maktab partasidayoq, "Uchar gilamlar" haqidagi ertaklarni eshitib katta bo'lganmiz. Shunday mo'jizaviy qudrat borligiga ishonganmiz. Sehrli ertaklar, rivoyatlar og'ushida kamol topgan shoir Hamid Olimjon she'rlarini sevib o'qiganmiz. Ota-onaning o'z farzandiga dastlabki bilim va malakalar berishi kelgusida bola uchun ham, oila uchun ham, jamiyat uchun ham g'oyat oydalidir. Ruhshunoslarning

isbotlashlaricha, 5-7 yashar bolaning ma'lumotlarni qabul qilish, xotirada saqlab qolish xususiyatlari 8-9 yoshli bolalarnikiga qaraganda kuchliroq bo'lar ekan. Modomiki shunday ekan, bolaning bu xususiyatlarini ishga solish uchun uning dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishga harakat qilmoq lozim. Husayn Voiz Koshifiy deydi: "Eng yaxshi tarbiya - bolaning bezori va badxulq kishilar bilan aloqa qilmasligini kuzatib turish. Bola aqlli, zehnlil kishilar bilan ish tutishi lozim. Uning oldida doimo dono, bilimdon, fozil kishilarni maqtash zarur. Yomon qiliq va xatti-harakatlarni qoralash darkor, toki bolada ularga nisbatan nafrat yig'onsin". Tafakkur, zehn bilan bog'liq bo'lgan irsiyat, iste'dod xususidagi xulosalar shundan iboratki, iste'dodli bolalarning yuzaga kelishida ijtimoiy muhit, irsiyatning o'rni ham beqiyosdir. Bu jihatdan qaraganda, yangi tarbiya tizimining asosiy manbalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz: – xalqimizning tarixiy an'analari, milliy turmush tarzi va odob-axloq mezonlari; – Islom dinidagi hayotning mohiyati, yashashdan maqsad, gunoxdan qo'rqish kabi ijtimoiy foydali g'oyalar, bir so'z bilan aytganda, milliy-diniy qadriyatlar; – Sharq mutafakkirlari, shuningdek Fapbolimlarining insonparvarlik, iqtidor, irsiyat xususidagi fikr-mulohazalari. Tarbiya jarayonida nasl-nasab, ruhiy jarayon va tug'ma mayllar, bola va inson miyasining irsiyat bilan bog'liq jihatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Aytish joizki, nasl-nasab, irsiyat, ruhiyat haqida gapirish yaqin-yaqingacha burjuacha qarash hisoblanardi. Holbuki, bu sohada G'arb olimlari umume'tirof etilgan kashfiyotlar qilganlar.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Zakovatning bir ming sabog'i. "Qalb so'zi". 1998 yil.
2. Zohidiy A. Buyuk muhaddis siyrati, aqidalari, ibratlari, o'g'itlari. "Fan va turmush". 1998 yil.
3. Irisov A. Hakim ibn Sino. Toshkent. "O'zbekiston" 1992 yil.
4. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, Noshir., T 2010
5. Davletshin M. G. va boshqalar "Yosh davrlari va pedagogic psixologiya" T. TDPU, 2004 yil.
6. Do'stmuhammedova Sh. A., Z. T. Nishanova, S. X. Jalilova, Sh. T. Karimova, Sh. T. Alimbayeva "Yosh davrlari va pedagogic psixologiya " Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi.2013

7. Narbasheva M. A. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” T: Kitob-nashr 2020y.
8. Kamoliddin Khushbokov. (2023). PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. Academia Science Repository, 4(04), 165–170.
9. Khushbokov, K. (2023). PSYCHOLOGICAL DESCRIPTION OF ACHIEVEMENTS AND PROSPECTIVE TASKS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 2(11), 54-59.
10. Xo‘shboqov Kamoliddin Abdulatif O‘G‘Li (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (11), 131-136.
11. KHUSHBOKOV, K. (2023). FORMATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. World Bulletin of Social Sciences, 20, 86-89.